**NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 13-noyabr | 503-6-89-Q/24 | Chust tuman hokimligi

## Chust tumanida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori va Namangan viloyati IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 21-sentabrdagi 24/6-2733-sonli xatini ko‘rib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 21-sentabrdagi 24/6-2733-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chust tumani Sarimsoqtepa MFY hududidan o‘tuvchi 4R-121 “Kosonsoy sh - Rovot q - Chust sh - Chust temir yo‘l stansiyasi - Pop temir yo‘l stansiyasi - Pop sh - Navbaxor sh” avtomobil yo‘lining 47-kmda (1.31 sun’iy yo‘l notekisligi) yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (B.Yettiboyev) ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizliigi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari va yo‘l chiziqlariga amal qilishlari shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB ga mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilgan avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta‘minlash va doimiy ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati (B.Mallayev), “Chust haqiqati” gazetasi tahririyati (Z.Mehmonova) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida hamda boshqa OAVlarda keng yoritilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Djafarov zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi** **B.Salimjonov**